



## 2023-yilning yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko'ra, hududlar miqyosida investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi

Makroiqtisodiy va  
hududiy tadqiqotlar  
instituti

I.Xudoyberdiyev  
M.Karimov

O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasiga muvofiq, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish iqtisodiy barqarorlikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar tadbirkor va investorlarning mamlakat iqtisodyotiga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. Bu esa investitsiyalar hajmining ortishiga ham sabab bo'lmoqda. Shunga qaramasdan, hududlar miqyosidagi investitsiyaviy faoliyat darajasida o'zaro nomutanosibliklar mavjud. Bunday holat hududlarning iqtisodiy salohiyati va resurslar taqsimotidagi o'ziga xos jihatlar bilan bir qatorda, ichki va tashqi omillarning ta'siri natijasi hamdir. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va belgilangan strategik maqsadlarga erishish hududlarning investitsion faolligini uzlucksiz va davriy ravishda tahilil qilib borishni taqazo etadi.

**Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari O'zbekistonda 2023-yilning dastlabki 9 oyi davomida hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish samaradorligini tahlil qildi.**

***Ma'lumot uchun:*** Hududlarga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholashda **IPI (Investment Performance Index)** indeksidan foydalanildi.

*IPI indeksi hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko'rsatadi.*

*IPI indeksi uchun me'yordagi ko'rsatkich 1,00 ga teng* va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo'iga qo'yilganini anglatadi. Indeksni hisoblash metodologiyasi 1-ilovada keltirilgan.

Hisob-kitoblar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2023-yilning yanvar-sentyabr oylari bo'yicha tayyorlangan davriy axborotnomadan foydalanildi.

## **I. Hududlarning investitsiyaviy faoliyati ko'rsatkichlari tahlili**

**1.1.** 2023-yilning dastlabki 9 oyi mobaynida aksariyat hududlarda investitsiyaviy faoliyat o'sish dinamikasini qayd etdi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ortdi (2-ilova):

- Asosiy kapitalga investitsiyalarning** respublika bo'yicha o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 11,8 foizga teng bo'ldi. Hududlar miqyosida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent (25,9 foiz), Samarqand (21,2 foiz), Jizzax (20,8 foiz) viloyatlarida qayd etildi. Jami investitsiyalarning ortishi asosan xususiy sektor mablag'larini jalb qilish hisobiga ta'minlandi.

***Ma'lumot uchun:*** birgina Samarqand viloyatida joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida korxona mablag'lari hisobidan investitsiyalar **1,6 marotaba**, tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari **2,4 marotaba** ortgan.

- Sirdaryo (10,0 foiz), Xorazm (5,4 foiz) va Qashqadaryo (0,4 foiz) viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning pasayish dinamikasi qayd etildi. Sirdaryo viloyatida barcha **markazlashgan investitsiyalar**, shuningdek, Xorazm viloyatida **byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari** hisobidan investitsiyalarning qisqarishini jami investitsiyalarning kamayishiga asosiy sabab sifatida keltirish mumkin. Qashqadaryo viloyatida esa investitsiyalarning qisqarishi **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar** hamda **aholi investitsiyalari** hisobiga yuz bergan.

**Ma'lumot uchun:** Sirdaryo viloyatida jami markazlashgan investitsiyalar hajmi 51,2 foizga kamaygan bo'lsa, Xorazm viloyatida byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari hisobidan investitsiyalar mos ravishda 8,9 va 6,6 foizga pasagan.

**1.1.** Joriy yilning 9 oyi davomida **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar** miqdorining o'sish dinamikasi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan hududlar miqyosida turli xil tendensiyalarga ega bo'ldi:

- Surxondaryo (49,2 foiz), Namangan (38,0 foiz) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (27,8 foiz) o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi hududlar hisoblanadi;
- Buxoro (12,7 foiz), Qashqadaryo (10,3 foiz), Sirdaryo (5,0 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,9 foiz) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan kamaygan.

**Ma'lumot uchun:** Yanvar-sentyabr oylarida **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar** Xorazm (15,1 foiz), Samarqand (6,8 foiz), Andijon (22,4 foiz), Farg'ona (17,3 foiz) viloyatlarida o'sish tendensiyasini qayd etdi.

**1.2.** O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, hududlar miqyosida investitsiyalar oqimi **notejis** taqsimlanish xususiyatiga ega (3-ilova):

- Asosiy kapitalga investitsiyalar yanvar-sentyabr oylarida jami 226,6 trln. so'mni, **hududlar miqyosida o'rtacha qiymat 16,1 trln. so'mni** tashkil etgan bo'lsada, Xorazm viloyatida 6,7 trln. so'mni, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 7,8 trln. so'mni tashkil etdi. Bu esa respublika bo'yicha o'rtacha qiymatdan mos ravishda 2,7 va 2,0 marotaba past.

**Ma'lumot uchun:** Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha hududlar miqyosida o'rtachadan yuqori ko'rsatkichni Toshkent shahri (47,6 trln. so'm), Toshkent (28,0 trln. so'm) va Samarqand (19,0 trln. so'm) viloyatlari qayd etdi.

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar jami 91,8 trln. so'mga, **hududlar miqyosida o'rtacha qiymat 6,5 trln. so'mga** teng bo'ldi. Xorazm viloyati 2,1 trln. so'm va Qoraqalpog'iston Respublikasi 2,4 trln. so'm miqdorda investitsiya mablag'larini jalb qilgan holda o'rtacha ko'rsatkichdan mos ravishda 3,0 va 2,7 marta ortda qolmoqda.

**Ma'lumot uchun:** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha hududlar miqyosida o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlarni Toshkent (10,7 trln. so'm) shahri, Toshkent (14,2 trln. so'm), Buxoro (8,0 trln. so'm), Sirdaryo (7,2 trln. so'm), Samarqand (7,1 trln. so'm), Navoiy (8,1 trln. so'm) viloyatlari qayd etdi.

## **II. Hududlarga investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi indeksi**

**2.1.** 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida **asosiy kapitalga investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi indeksiga** ko'ra quyidagilar aniqlandi (4-ilova):

- Sirdaryo (2,00), Buxoro (1,67) viloyatlarida indeks qiymati me'yordagidan ancha yuqori bo'ldi. Bunga investorlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi hamda strategik ahamiyatga ega mega loyihalarning vaqtinchalik ta'siri sabab.
- Qashqadaryo (1,00), Farg'ona (1,00) viloyatlarida me'yordagi ko'rsatkich, aksariyat viloyatlarda esa unga yaqin qiymatlar qayd etildi.

**2.2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalg qilish samaradorligi indeksi** bo'yicha:

• Farg'ona (0,96) va Xorazm (0,95) viloyatlarida IPI indeksi **me'yordagiga yaqin ko'rsatkichni** qayd etgan bo'lsa, Sirdaryo (3,93), Buxoro (1,78), Jizzax(1,64), Toshkent(1,52) viloyatlarida **1 dan yuqori** bo'ldi. Bu esa mazkur viloyatlarga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yuqori bo'lsada, ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

• Toshkent shahri (0,67), Xorazm viloyati (0,68) indeksi 1 dan past ko'rsatkichni qayd etdi. Bu esa ushbu hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalg qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

## **III. Xulosa va takliflar**

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsiyalarni jalg qilish samaradorligi ko'p jihatdan yirik strategik investitsiya loyihalariga bog'iq holda shakllanadi. Hududlarning nomutanosib invetisiyaviy faolligi esa mamlakat iqtisodiy muvozanatiga va barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa o'z navbatida samarali choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qilishini inobatga olgan holda quyidagilar taklif etiladi:

**3.1. Hududlarga jalg etilayotgan investitsiyalar oqimining barqarorligini ta'minlash maqsadida uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish:**

• strategiyalarda viloyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda sanoat tarkibini diversifikatsiyalash, **qayta ishlash sanoati** va **xizmatlar sohasiga** investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Sababi ushbu sohalar nisbatan kapital sig'imi past bo'lib, qisqa muddatli istiqbolda iqtisodiy samarasini beradi;

**3.2.** Investitsion loyihalar amalga oshirilishi davrida mablag'lar sarflanishi ustidan monitoringni kuchaytirish, dastur loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonini optimallashtirish, ish jadvaliga rioya etishni nazorat qilish.

**3.3.** Hududlar taraqqiyotida chet el investitsiyalarining o'rni yuqoriligini inobatga olgan holda viloyatlarda xorijiy investorlar bilan ishlash tizimining sifatini yaxshilash.

## Hududlarga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksini hisoblash metodikasi

Indeks mintaqaning respublikaga kiritilayotgan jami investitsiyalar hajmidagi ulushi va mintaqaning mamlakat YALM tarkibidagi ulushi o'rtaсидаги о'заро нисбат:

$$IPI_i = \frac{Inv_i/Inv_t}{GRP_i/GDP},$$

ko'rinishida aniqlanadi.

Bu yerda,  $Inv_i$  –  $i$  - hududga kiritilgan investitsiya;  $Inv_t$  – respublikaga kiritilgan jami investitsiya;  $GRP_i$  –  $i$  – viloyatning yalpi hududiy mahsuloti;  $GDP$  – mamlakatning yalpi ichki mahsuloti.

Indeksda 1 eng maqbul qiymat hisoblanadi va u hudud barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo'lga qo'yilgani, vaziyatni beqarorlashtiruvchi holatlar mavjud emasligini ko'rsatadi.

IPI indeksining 1 dan yuqori qiymati hududga investitsiyalarni jalb qilish hajmi uning mamlakat yalpi ichki mahsulotining shakllanishiga qo'shgan hissasidan oshib ketishini anglatadi. Bu yuqori daromad potensiali yoki texnologik afzalliklar, joylashuv xususiyatlari (boshqa qulay omillar bilan birgalikda), siyosiy yoki iqtisodiy inqirozning tugashi, ommaviy xususiylashtirish yoki investorlarning hududga bo'lgan qiziqishining keskin ortishi (yangi foydali qazima konlari topilishi va boshqalar) va boshqa omillar bilan bog'liq vaziyatlarning mavjudligi bilan izohlanishi mumkin.

1 dan past bo'lgan qiymat mintaqadagi investitsiyalar ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotining shakllanishiga qo'shgan hissasi kutilganidan past ekanligini anglatadi. Bunga vaziyat rivojlanishning beqarorligi, investitsiya siyosatining yomon ishlab chiqilishi yoki amalga oshirilishi, mintaqaning past raqobatbardoshligi kabi bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin.

**2-ilova**  
**1- jadval**


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati (choraklik)**

	2022-Q1	2022-Q2	2022-Q3	2022-Q4	2023-Q1	2023-Q2	2023-Q3
O'zbekiston Respublikasi	115,2	106,6	103,3	100,2	103,1	107,9	111,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	125,6	123,9	119	114,9	118,6	104,2	103,4
Andijon viloyati	154,7	149,4	123,5	116,5	84,3	89,2	108,6
Buxoro viloyati	187,4	125,1	101,5	94,2	56,7	94,2	106,6
Jizzax viloyati	118,7	125,9	114,7	104,6	93,2	108,5	120,8
Qashqadaryo viloyati	121,3	99,1	92,2	80	72,9	93	99,6
Navoiy viloyati	111,1	106,7	108,2	109,4	99,4	104,6	110,7
Namangan viloyati	105,2	114,1	107,7	104,2	103,9	107,5	118,2
Samarqand viloyati	139,6	125	116,2	111,6	130,7	118,3	121,2
Surxondaryo viloyati	104	94,2	97	87,5	112,5	110,9	112,3
Sirdaryo viloyati	151,7	140,9	138,7	135,1	127,4	97,1	90
Toshkent viloyati	82,1	86,9	90,1	110,7	121,7	137,7	125,9
Farg'onha viloyati	122,9	119,4	116,3	112,4	132,3	114,9	118,2
Xorazm viloyati	106,4	109,5	102,6	94,2	108	99,6	95,4
Toshkent shahri	91,4	86,6	92,7	87,2	117,8	111	113

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistikaga agentligi ma'lumotlari

1-rasm


### Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimoti (choraklik)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistikika agentligi ma'lumotlari

## 2-rasm

### 2023-yilning yanvar-sentyabr oylari yakuniga ko‘ra hududlar miqyosida asosiy kapitalga investitsiyalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish samaradorligi indeksi



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari